

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

“SIYOSIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-sonli, 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4139-sonli Qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida xalqaro ekspertlar, respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda iqtidorli talaba-yoshlar ishtirokida Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” hamda O‘zbekiston milliy universiteti Siyosatshunoslik kafedralari tashabbusi bilan **2025-yil 4-5-aprel kunlari** Buxoro davlat universitetida **“Siyosiy fanlarning dolzarb muammolari”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkaziladi. Mazkur konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘iga asosan 2025-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga kiritilgan.

ILMIY-NAZARIY ANJUMAN ISHINING YO‘NALISHLARI:

1. Siyosat nazariyasi va falsafasi, siyosatshunoslik tarixi va metodologiyasi;
 2. Siyosiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy tadqiqotlar: muammo, yechimlar va istiqbollari;
 3. Davlat boshqaruvi va siyosiy institutlar, global jarayonlar va texnologiyalar;
 4. Siyosiy madaniyat va mafkura, raqamli asrda axborot va media siyosati;
 5. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari, etnosiyosat va konfliktologiya;
 6. Milliy xavfsizlik muammolarining tizimli tahlili va prognozlashtirish;
 7. Yangi geosiyosiy muammolar kontekstida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari;
 8. Sifatli ta’limni tashkil etishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning siyosiy mohiyati.
- Konferensiyada ishtirok etish uchun tezis va maqolalar **2025-yilning 10-martiga** qadar qabul qilinadi.

MAQOLA MATNIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

Maqolalar mavzu doirasida bo‘lishi, ilmiy-amaliy talablarga javob berishi, taklif va mulohazalar berilishi maqsadga muvofiq.

Matn formati Microsoft Word, sahifa formati: A4, satr oralig‘i 1,5 intervalda, shrifti Times New Roman – 14 kegl. Matn formatining chegarasi: yuqori va pastdan – 2,5 sm, chapdan – 3 sm, o‘ngdan – 1,5 sm.

Maqolaning yuqori qismida bosh harflar bilan mavzu, bir qator qoldirib qatorning o‘ng burchagida muallif haqida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim: F.I.Sh., ish yoki o‘qish joyi, xodimlar uchun ilmiy darajasi va unvoni, talabalar, magistrlar va tayanch doktorantlar, doktorantlar uchun yo‘nalish, mutaxassislik va ixtisoslik nomi, telefon raqami, bir qator

qoldirib asosiy matn yozilishi talab qilinadi. Havolalar har bir sahifada beriladi. Maqola hajmi 3-6 bet.

Maqola saqlangan fayl sho'ba raqami va maqola muallifining ismi-sharifi bilan nomlanadi. (Masalan: 3-sho'ba. Rizayev Nodir)

So'nggi yalpi majlisda xulosa va takliflar muhokama qilinib, yakuniy tavsiyalar qabul qilinadi. Matn ilmiy-uslubiy tahrir qilingan hamda sho'balarga mansubligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Barcha talablarga javob bergan va tahrir hay'ati ko'rigidan o'tgan maqolalar ilmiy to'plamga kiritiladi.

Maqolalar o'zbek tilida (lotin alifbosida), rus, ingliz, fransuz va nemis tillarida qabul qilinadi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun maqola va tezislar

2025-yilning 10-martiga qadar qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita maqolalarni tanlab olish huquqiga ega.

Tahrir hay'ati tomonidan nashrga tavsiya etilgan maqola va tezislar chop etiladi. Talablarga javob bermaydigan maqola va tezislar qabul qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Tezislar mazmuni va undagi ma'lumotlar uchun mualliflar shaxsan mas'uldirlar.

Anjumanning tashkiliy badali va materiallar to'plamining nashr xarajatlari har bir maqola uchun 100 000 (yuz ming) so'm deb belgilangan. O'tkazmalar bank plastik kartasi orqali 2025-yil 10-martga qadar 4073 4200 1130 7117 plastik kartasiga (Sh.Gulboyev) Click yoki Payme orqali amalga oshiriladi. Mualliflarga elektron to'plam va sertifikat (PDF) berish ko'zda tutilgan.

Talabalardan va xorijiy mualliflardan maqola uchun badal puli olinmaydi.

Konferensiya materiallariga kiritilgan maqolalarga **DOI** raqam berilib, to'plam **Google scholar** xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanadi.

Maqolalarda dolzarb muammolarni ko'tarib, foydali echim va takliflar taqdim etgan mualliflar anjumanning so'nggi yalpi majlisida har bir yo'nalish bo'yicha: **"Eng yaxshi tahliliy maqola"** nominatsiyasi bo'yicha sertifikat bilan taqdirlanadi.

Anjumanni o'tkazilish sanasi: 2025-yil, 4-5-aprel, soat 10:00.

Manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Konferensiyada ishtirok etishni istaganlar yuqorida keltirilgan talablarga muvofiq tayyorlangan tezis materiallarini 2025-yil 10-martgacha docx fayl formatida quyidagi manzilga yuborishlarini so'raymiz: e-mail: polit@buxdu.uz; telegram: <https://t.me/RajabovShohizamon> yoki telefon raqami +998 99 707 91 37.

Konferensiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni **t.me/siyosiy_fanlar** telegram kanali va **tme:Siyosiy fanlarning dolzarb muammolari** telegram guruhlaridan olishingiz mumkin.

Murojaat uchun: Nodir Rizayev +998 93 342 40 88.

Eslatma: Anjuman davrida Buxoro shahrining tarixiy obidalari va muqaddas qadamjoylariga sayohatlar tashkil etiladi.

Tashkiliy qo'mita